

## “AJDODLARGA MUNOSIB FARZAND BO’LAYLIK”

*Muradova Ma'mura Kamolxo'jayevna*

*Zangiota tumani MMTB ga qarashli 13- umumta'lim  
Maktabining ona tili ba adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu mqaolada, bugungi avlod ham ajdodlarga munosib voris bo‘lgan holda turli fan sohalarini bilishlari, ilm sirlarini chuqur egallashlari, ma’rifatli, intellektual salohiyatlari, keng dunyoqarash va mustaqil fikrga ega shaxs bo‘lishlarini chuqur anglagan holda barkamol avlod bo‘lishlari haqida qisqacha yoritib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Xalq, millat, ma’naviyat, ilm-u ma’rifat, komillik, yetuklik, ezgulik, texnologiya.

Insoniyat rivoji, xalq, millat ravnaqi, ma’naviy takomili va yuksalishi ilm-u ma’rifatning yuqori cho‘qqiga yetganligidan dalolatdir. Bu esa, o’sha millat, xalq, davlat va jamiyat tamaddunining yuksak darajasini belgilovchi muhim mezondir. Inchunin, yuksak tamaddunga ega millatning ildizi ma’rifat chashmasiga to‘yingan, tanasi bilim, mevasi esa yetuklik, barkamollik, komillikdir. O‘zbek xalqi ana shunday ma’rifat chashmasidan oziqlangan, ildizi baquvvat, tarixda bir nechta renessans davrini boshlab bergen va dunyo tamadduniga ko‘plab daholarni yetishtirgan millatdir.

Buyuklar qoldirgan chashma shu qadar pok va takrorlanmaski, undan ichganing sari mudom bu chashmaga intilaverasan. Intilganing sari o‘zingda komillik, yetuklik, ezgulik kasb etib boraverasan. Darhaqiqat, bugungi avlod ham ajdodlar qoldirgan ana shu ma’rifat chashmasiga intilib yashashi va ular merosini chuqur o‘rgangan holda tadqiq etishi va bu asosida, jamiyat ma’naviy yuksalishiga xizmat qilishi lozim. Buyuk faqih Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari qimmatli manbalardan bo‘lib, necha asrdan buyon fiqh ilmiga oid izchil va mukammal qo‘llanma sifatida o‘qib kelangan. Mazkur asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda, islom huquqiga oid qimmatli manba sifatida soha mutaxassislari tomonidan huquq va majburiyatlarni belgilashda muayyan darajada asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, hozir mamlakatimiz oldida ijtimoiy davlat tuzish maqsadi turibdi. Ijtimoiy davlat, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyat, odamlarning munosib hayot kechirishiga zarur sharoit yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e’tibor Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga karatilyapti.

Tarixdan ma’lumki, ma’rifat va ma’naviyat uchun qanchadan-qancha kurashlar bo‘lgan. Xususan, buyuk jadid bobolarimiz yangi usuldagagi maktablarga asos solgan.

Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy bu borada ko‘p ishlarni qilgan. Ularga munosib avlod bo‘lishimiz uchun ko‘p ilm olishimiz kerak.

Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun kichik sinf tizimini yangilash va qo‘sishma faoliyat turlarini tashkil etish lozim. Shunga muvofiq davlatimiz rahbari kelgusi yildan boshlang‘ich sinflarda yangicha metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yilishi haqida gapirdi.

Bugungi axborot texnologiyalar asrida yoshlarning salohiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Ular ko‘plab musobaqalar, jahon miqyosidagi olimpiadalar, tanlovlarda faxrli o‘rnlarni egallab kelmoqda. Bu yoshlарimizning ilmiy salohiyati yanada oshganidan dalolat. Ushbu yutuqlarni yanada ko‘paytirish maqsadida iqtidorli o‘g‘il-qizlarga yaratilgan imkoniyatni kengaytirish lozim.

Yangi yilda talabalar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilib, ta’lim kreditiga ajratiladigan resurslar 2,5 baroba ko‘paytirilib, 1,7 trillion so‘mga yetkazilishi ko‘zda tutildi.

2023-yildan mакtab ta’limida xalqaro o‘qitish dasturlarini amalda qo‘llash nazarda tutildi. Shunga ko‘ra, yurtimizda bu yil 70 ta yangi mакtab qurilishi hamda 460 ta mакtab kengaytirilishi ham aytildi.

Ta’lim sohasidagi yana bir muhim yunalish yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishdir. Zero, qo‘lida kasb-hunari bor kishi hech kimga muhtoj bo‘lmaydi. Bu xususda kelgusida ko‘plab loyihalar amalga oshirilishi va islohotlar o‘tkazilishi ham ta’kidlandi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda ta’lim sohasi sezilarli darajada oshishi, avvalo, yoshlarning qo‘lidadir. Bizga berilgan imkoniyatlardan foydalangan holda yurtimiz rivoji va ravnaqiga hissamizni qo‘shsak, ajdodlarimizga munosib farzand bo‘la olamiz. Buning uchun esa, eng avvalo, ilm olish, o‘z ustimizda ishslash, yangi g‘oya va innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga astoydil bel bog‘lab, harakat qilishimiz zarur. Shundagina oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga erisha olamiz.

Ta’kidlash lozimki, “Hidoya” asari jami 6 jilddan iborat bo‘lib, 2 jildi to‘liq va mukammal holda joriy alifboda nashr etildi. Olimlar tomonidan asarning qolgan 4 jildini nashr etish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu albatta, bizga boy merosimizdan bahramand bo‘lish, ma’naviy kamolotimiz yo‘lida istifoda etish imkonini beradi.

Yoki arab tili grammatikasini chuqur o‘rganib, arablarga o‘z tilidan saboq bergen va “Xorazm faxri”, “Arab va g‘ayri arablar ustozи” degan yuksak nomlarga sazovor bo‘lgan Mahmud Zamaxshariy faoliyati ham o‘ziga xos va arab tilshunosligini o‘rganishda alohida o‘ringa ega. Zamaxshariy tafsir, hadis, adabiyot, fiqh ilmlari bo‘yicha ham bebaho asarlar yaratgan yirik olimdir. Ayniqsa, mashhur “al Kashshof” asari dunyoning islam oliy dargohlarida Qur’on tafsiriga oid muhim darslik sifatida o‘qitib kelinadi.

Shuningdek, insonni komillik sari intilishiga va jamiyatda halol, pok, kamtarin bo‘lishga, hamisha ezgu ishlar qilishga chorlab kelgan tasavvuf ta’limoti ham ezgu g‘oyalari bilan jamiyat ma’naviy rivojiga beqiyos hissa qo‘sib kelgan. Bugun yetti pir sifatida e’tirof etilayotgan avliyo zotlar amaliy faoliyatida ilm-u irfon nurini ko‘ramiz. Chunonchi, Xojagon tariqati asoschisi, orif zot Abduxoliq G‘ijduvoniy irfoniy qarashlari orqali yuksak insoniy sifatlarni, umuminsoniy g‘oyalarni o‘z asar va o‘gitlarida ilgari surgan. Xususan, alloma “Vasiyatnomा” risolasida, “Ey, farzand! Men senga barcha holatlarda ilm, adab va taqvoda bo‘lishingni vasiyat qilaman! O‘tgan ulamolarning izidan yurishing lozim. Ahli sunnat va jamoatning mulozimi bo‘l!”, deya komillik va yetuklikka chaqiradi.

Ma’lumki, tasavvuf ta’limotini xalqchil, tushunarli va xalq orasiga keng yoyilishida badiiy ijod ahlining o‘rni beqiyosdir. Tasavvuf adabiyotining yuzaga kelishida ham so‘fiy, orif zotlarning ilohiy ishqqa qarab intilishida majoziy, obrazli ifodalarni she’riyat orqali tarannum etishida ko‘rinadi. Chindan ham, o‘zbek mumtoz asarlaridan, to XX asr boshlariga qadar yuzaga kelgan nasriy va nazmiy merosda o‘ziga xos obrazlar, ramzlar, timsollarning badiiy ifodasini ko‘ramiz.

Badiiy ijodda tasavvufiy tushuncha va istilohlar majoz orqali tarannum etiladi. Xususan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xo‘janazar Huvaydo, Uvaysiy, Nodira va boshqa ko‘plab o‘zbek mumtoz ijodkorlar merosida insonning poklik, ezgulik sari ruhiy intilishi, riyozat chekishi, insoniy sifatlarni egallab, komillik kasb etishi va eng muhimi, Yaratganga ilohiy muhabbat orqali xos banda bo‘lish kabi g‘oyalar mujassamdir.

Alisher Navoiy ijodi shunchalar xilma-xil va serqirraki, o‘rganganing sari yangi-yangi ma’nolar, so‘z kuchining jozibasi, tasvirning betakrorligini mushohada etib boraverasan.

Xususan, asarlarida ilgari surilganadolat, saxiylik, qanoat, vafo, kamtarlik, hayo, adab, rostlik kabi axloqiy tushunchalar va ularga qarama-qarshi riyo, tama, kibr, adabsizlik kabi illatlarning badiiy ifodasi orqali buyuk ijodkorning falsafiy mushohadasi, tafakkur olami naqadar yuksakligini bilamiz. Navoiy dahosining umrboqiyligi ham ana shundadir.

Shuningdek, So‘fi Olloyor ijodida ham islom arkonlari tasavvufiy g‘oyalar vobastaligida qalamga olinadi. Boborahim Mashrab esa, tavhid g‘oyasi uchun ma’naviy kurash olib borgan ilohsevar oshiq obrazini beradi va buni “junun”, “jonon”, “yor”, “may”, “ma’shuq”, “parvona” kabi majoziy tushuncha va timsollar orqali ifodalaydi. Bundan ko‘rinadiki, badiiy ijodda, insoniy muhabbatdan ilohiy muhabbatga qarab borish, ruhiy poklanish, umr mazmunini yaxshiliklar ustiga qurish muhim va umuminsoniy g‘oya sifatida baholanishini anglash mumkin.

Bugungi kunda ham bunday mazmundagi asarlar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan holda sevib mutolaa qilinadi va insonsevarlik, tinchlikparvarlik, birdamlikdan saboq beradi. XX asr ma’rifatparvarlar ijodi va ma’naviy jasoratini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Inchunin, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Is’hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho’lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar ijodi va ularning ma’rifiy takomil yo‘lidagi faoliyati bugungi avlod uchun ibrat maktabidir.

Bu ma’rifatparvarlar o‘z davrini Uchinchi renessans bosqichiga olib chiqishga intilgan ma’naviy yo‘lboshchilardir. Xalqni ilm, ma’rifat mayog‘i ostida birlashtirib, ulkan maqsad sari harakatlanishga chorlagan va bu yo‘lda ma’naviy qanot bo‘lgan, hatto ilm tarqatish, ziyo ularishni umrlarining mazmuniga aylantirganlar. Abdulla Avloniy yetuk pedagog sifatida o‘z zamonasi yosħlarining ta’lim-tarbiyasi masalasini yuqori o‘ringa qo‘ygan. Ijodkorning tarbiyaga oid “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yoki maktablar uchun yozgan qator darsliklari o‘z davri va bugungi kun uchun ham qimmatli va qadrlidir.

Xalqni ilm-ma’rifatli qilish, san’at va madaniyatni rivojlantirish, nashr ishlarni kengaytirish, turli davlatlar bilan ilmiy-ma’rifiy aloqalarni yanada kuchaytirish, eng muhimmi, ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berib, o‘z asarlari, she’rlari orqali ma’rifatga chorlagan buyuk ma’rifatparvarlarimizning amaliy faoliyati va tinimsiz sa’y-harakatlari beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, allomalar merosi bebahoh ma’naviy boylik, bilim duriga limmo-lim xazinadirki, bu ilm-u irfon injulariga to‘la xazina bizni hamisha tarbiyalaydi va ulug‘ ajdodlarga munosib avlod sifatida buyuk maqsadlar, ulkan ishlarni amalga oshirishga undaydi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. - 2014. - №. 8. - С. 852-854.
2. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. - 2020. -№. 1 (46).
3. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. - 2014. - C. 101-104.
4. Эргашева Г. Development of teachears innovative activities //Ученый XXI века. -2018. - №. 4-3.
5. Эргашева Г. The effectiveness of theuseof interactive learning on the lessons //Ученый XXI века. - 2018. - №. 4-3.
6. Эргашева Г. The effectiveness of theuseof interactive learning on the lessons //Ученый XXI века. - 2018. - №. 4-3.